

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**X RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

MAY, 2026



ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**YANGI DAVR ILM-FANI:
INSON UCHUN INNOVATSION
G'OYA VA YECHIMLAR**

**X RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, may

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 10-son (may, 2026-yil).– 93 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-may

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Erkinov Alisher

BUXORO SHAHRINING TURAR-JOY MAHALLALARI, AHOLISI SONI VA
ETNIK TARKIBI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) 5-8

Sheripova Mahliyo

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGINING MADANIY MUHITI VA
KOMIL XORAZMIY FENOMENI 9-14

Yusupov Xamdambek

XORIJ TARIXSHUNOSLIGIDA AFRIG'IYLLAR SULOLASINING KELIB CHIQISHI
MASALASI: YONDASHUVLAR VA QARASHLAR 15-19

Xo'jayeva Inobat

YANGI O'ZBEKISTON VA YUNESKO: MADANIY MEROS, TA'LIM VA
BARQAROR RIVOJLANISH SOHASIDAGI STRATEGIK HAMKORLIK 20-26

Abdullayeva Shoxnoza

XORAZM TANBUR CHIZIG'I — SHARQ MUSIQA MADANIYATIDA NOYOB
NOTA YOZUVI TIZIMI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI 27-32

Xakimov Mansurbek

OROL FOJIASI – GLOBAL EKOLOGIK MUAMMO SIFATIDA 33-40

Xudoyorov Abrorjon

"XORAZM HAQIQATI" GAZETASIDA QISHLOQ MEHNAT AHLINING URUSH
YILLARIDAGI HAYOTI VA JASORATI MAVZUSINING YORITILISHI 41-43

Matchonova Nilufar

AMUDARYO HAVZASIDA IJTIMOY TARIX VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARNING
O'ZARO TA'SIRI: EFTALIYLAR DAVRI ANTROPOGEN LANDSHAFTLARI VA
SOTSIO-EKOLOGIK MOSLASHUV (V–VI ASRLAR)..... 44-49

IQTISODIYOT FANLARI

Иногамова Наира

ЦИФРОВИЗАЦИЯ КАК ФАКТОР УСКОРЕНИЯ ПРОГРЕССА ПО ЦЕЛЯМ
УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА 50-54

FILOLOGIYA FANLARI

Begmatova Diloromkhan

THE FUNCTIONAL ASPECT OF POLITICAL EUPHEMISMS IN DARI LANGUAGE
NEWSPAPER TEXTS 55-58

Akbarova Ma'suma

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KIYIM-KECHAK LEKSIKASINING LINGVOMADANIY
TAHLILI 59-61

Isanova Feruza

O'ZBEK VA INGLIZ HUQUQIY DISKURSIDA MODALLIK IFODASI:
QIYOSIY-LINGVISTIK TAHLIL 62-67

YURIDIK FANLAR

Xushboqov Himoyiddin

KIBERJINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DALILLARNI AUTENTIFIKATSIYA
QILISHNING HUQUQIY MUAMMOLARI 68-74

PEDAGOGIKA FANLARI

Xaydarova Namunaxon

GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM
TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI VA
UNING ILMIY-METODIK ASOSLARI 75-78

Gulamov Shavkat

TALABALARDA ILMIY DALILASH VA LOGIK ARGUMENTATSIYA QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH 79-84

Yalgasheva Zilola

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARNING
USLUBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI 85-87

Rasulova Dilafruzxon

XALQARO PEDAGOGIK ATAMALARNI O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY
YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI 88-92

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGINING MADANIY MUHITI VA KOMIL XORAZMIY FENOMENI

Sheripova Mahliyo Marks qizi

Ma'mun universiteti,

Tarix yo'nalishi magistratura talabasi

Email: sheripova.mahliyo@mamun.uz

Urganch, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Xiva xonligida ro'y bergan madaniy yuksalish jarayonlari hamda ushbu jarayonlarda davlat arbobi, shoir, musiqashunos va xattot Komil Xorazmiy (Pahlavonniyoz Muhammad)ning tutgan o'rni tarixiy-tahliliy uslubda tadqiq etilgan. Tadqiqotda muallifning biografiyasiga oid arxiv hujjatlari, Ogahiy, Bayoniy va Laffasiy kabi zamondoshlarining asarlari, shuningdek, Komil Xorazmiyning o'z merosi qiyosiy-tarixiy va manbashunoslik metodlari yordamida o'rganildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Komil Xorazmiy faqatgina ijodkor sifatida emas, balki Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz saroyida shakllangan adabiy-madaniy muhitning markaziy shaxsi sifatida ham namoyon bo'lgan. Uning tomonidan ixtiro qilingan «Tanbur chizig'i» nota tizimi Xorazm maqom san'atining yo'q bo'lib ketishini oldini olishda, o'g'li Mirzo Muhammad Rasul tomonidan davom ettirilgan ushbu an'ana esa Xorazm shashmaqom maktabining bugungi kungacha asl holida saqlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

Kalit so'zlar. Xiva xonligi, Komil Xorazmiy, Pahlavonniyoz Muhammad, Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz, «Tanbur chizig'i», Xorazm shashmaqomi, Gandimiyon shartnomasi, Mirzo Muhammad Rasul, ma'rifatparvarlik.

THE CULTURAL ENVIRONMENT OF THE KHIVA KHANATE IN THE LATE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES AND THE PHENOMENON OF KOMIL KHOREZMI

Sheripova Mahliyo Marks qizi

Master's student, History Department,

Mamun University,

Khiva, Uzbekistan

Annotation. This thesis examines the cultural advancement processes that took place in the Khiva Khanate during the second half of the 19th and the beginning of the 20th centuries, as well as the role of the statesman, poet, musicologist, and calligrapher Komil Khorezmi (Pahlavon Niyoz Muhammad) in these processes. Through comparative-historical and source-study methods, the author's biographical data, works of his contemporaries such as Ogahiy, Bayoniy, and Laffasiy, and his own literary legacy were analysed. The findings demonstrate that Komil Khorezmi was not merely a creative figure but a central personality of the literary and cultural environment shaped at the court of Muhammad Rahimkhan II – Feruz. The «Tanbur Line» musical notation system he invented prevented the extinction of the Khorezm maqom art, while its continuation by his son Mirzo Muhammad Rasul ensured the preservation of the Khorezm shashmaqom school in its original form to the present day.

Keywords: Khiva Khanate, Komil Khorezmi, Pahlavon Niyoz Muhammad, Muhammad Rahimkhan II – Feruz, «Tanbur Line», Khorezm shashmaqom, Gandimiyon Treaty, Mirzo Muhammad Rasul, enlightenment.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i10/n02>

Kirish

O'zbek xalqi madaniy merosini chuqur tadqiq etish, milliy o'zlikni anglash va davlatchilik tarixini ilmiy asosda qayta baholash bugungi tarixshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida

O'rta Osiyo xonliklarining siyosiy-iqtisodiy mustaqilligi keskin cheklangan, lekin shu bilan birga, ichki madaniy hayotda o'ziga xos uyg'onish jarayonlari kuzatilgan davr bo'lib, mazkur tarixiy bosqichni har tomonlama o'rganish ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Aynan shu davrda Xiva xonligida Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz hukmronligi (1864–1910-yillar) ostida saroy atrofida shakllangan adabiy va ilmiy muhit nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan madaniy hodisaga aylandi. Ushbu muhitning yetakchi vakillaridan biri – davlat arbobi, shoir, mohir xattot, ma'rifatparvar va musiqashunos olim Komil Xorazmiy (asl ismi Pahlavon Niyoz Muhammad, 1825–1899) edi. Uning hayoti va ko'p qirrali ijodi Xiva xonligi madaniyatining XIX asrdagi rivoji uchun chinakam fenomenal hodisa sifatida baholanadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shu bilan belgilanadiki, Komil Xorazmiy fenomeni hozirgacha asosan adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilgan, biroq uning davlat boshqaruvi, diplomatiya, ma'rifatparvarlik va musiqashunoslik sohalaridagi faoliyati kompleks tarixiy yondashuv asosida tadqiq etilmagan. Ayniqsa, uning tomonidan ixtiro qilingan «Tanbur chizig'i» nota tizimining madaniy-tarixiy ahamiyati va uning o'g'li Mirzo Muhammad Rasul tomonidan davom ettirilgan musiqiy an'ananing Xorazm shashmaqomini saqlab qolishdagi roli alohida ilmiy tadqiqotni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi – XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Xiva xonligining madaniy muhitini Komil Xorazmiy faoliyati misolida har tomonlama tahlil qilish hamda uning shaxsi va merosi orqali davr madaniyati rivojining o'ziga xos qonuniyatlarini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Komil Xorazmiy hayoti va ijodiga oid dastlabki ma'lumotlar uning zamondoshlari – Muhammadrizo Ogahiyning «Gulshani davlat» asarida hamda Hasanmurod Laffasiyning «Tazkirai shuaro» tazkirasida bayon etilgan [3; B.45.]. Bayoniy Muhammad Yusufbekning «Shajarai Xorazmshohiy» asarida esa Feruz davri saroy madaniy muhiti va Komil Xorazmiyning davlat boshqaruvidagi o'rni haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Sovet davrida Komil Xorazmiy ijodi A. Hayitmetov va V. Mo'minova kabi olimlar tomonidan o'rganilib, 1961-yilda «Tanlangan asarlar» nashr etilgan [4; B.7.]. Mustaqillik yillarida esa Sh. Amonov, N. Jumaxo'ja, I. Adizova, X. Soliyeva kabi tadqiqotchilarning ishlarida XIX asr Xiva adabiy muhiti va Komil Xorazmiy ijodi yangicha yondashuv asosida tahlil etilgan [7; B.67–70.]. Shu bilan birga, Xorazm shashmaqomi va «Tanbur chizig'i» tizimi bo'yicha kompozitor Matniyoz Yusupovning besh tomlik «Xorazm maqomlari» kitobi musiqashunoslik nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Komil Xorazmiyning shaxsiyati alohida-alohida – goh shoir, goh xattot, goh musiqashunos sifatida o'rganilgan, biroq uni davr madaniyatining yagona fenomeni sifatida butun yaxlitligida tadqiq etish hozirgacha ilmiy adabiyotda yetarli darajada amalga oshirilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilab beradi.

Tadqiqot davomida tarix fanida keng qo'llaniluvchi quyidagi metodlardan foydalanildi: tarixiylik va xolislik tamoyillari asosida qiyosiy-tarixiy metod – Xiva xonligi madaniy muhitini boshqa O'rta Osiyo xonliklari bilan qiyoslash uchun; manbashunoslik metodi – birlamchi yozma manbalar (devon, tazkira, asarlar)ni tahlil qilish maqsadida; biografik metod – Komil Xorazmiyning hayot yo'lini tizimli o'rganish uchun; hujjatli-tahliliy metod – arxiv hujjatlari,

jumladan, Gandimiyon shartnomasi matni va saroy yozishmalarini o'rganish uchun. Shuningdek, madaniyat hodisalarini izohlashda tizimli yondashuv qo'llanildi.

Natijalar va muhokama

Komil Xorazmiyning hayot yo'li va shakllanishi. Pahlavon Niyoz Muhammad 1825-yilda Xiva shahrida o'z davrining yetuk ulamosi, mudarris Abdulla Oxund oilasida tug'ilgan. Otasi Xiva madrasalarida mudarrislik qilgan va o'g'liga ilk savod, arab hamda fors tillari asoslarini o'rgatgan, unda mumtoz adabiyotga bo'lgan havasni shakllantirgan [4; B.12.]. Pahlavon Niyoz 1832-yildan boshlab mahalla maktabida, so'ngra 1844–1845-yillarda Xiva madrasalaridan birida tahsil olgan.

Madrasada o'qib yurgan davrida otasidan erta judo bo'lishi yosh Pahlavon Niyozni mustaqil hayotga undagan, biroq u o'z ustida muntazam ishlashni to'xtatmagan. U arab va fors tillarini mukammal o'zlashtirib, Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini chuqur o'rgangan, unga taqlidan she'rlar yoza boshlagan. Shu bilan birga, u musiqa va xattotlik san'atining nozik sirlarini ham egallagan. 25–30 yoshlariga kelib Komil taxallusi bilan iste'dodli shoir, mohir xattot va sozanda sifatida butun Xorazm vohasiga tanilgan.

Davlat boshqaruvi va diplomatik faoliyati. Komil Xorazmiyning iqtidorini payqagan Xiva xoni Sayyid Muhammadxon uni saroyga taklif etib, xususiy devon (kotib)i etib tayinlagan. Muhammadrizo Ogahiy o'zining «Gulshani davlat» asarida shoirni «*fozili zamon*», ya'ni «zamonasining fozil kishisi» deb ta'riflagan [5; B.234.]. Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz (1864–1910) hukmronligi davrida Komil Xorazmiyning mavqei yanada yuksalib, u mirzaboshi lavozimiga tayinlangan.

Komil Xorazmiyning siyosiy faoliyatidagi eng muhim, ayni paytda eng og'riqli sahifalardan biri 1873-yilgi Gandimiyon shartnomasi bilan bog'liq. Rossiya imperiyasi qo'shini general K.P. fon Kaufman boshchiligida Xiva xonligining poytaxti va asosiy shaharlarini bosib olganidan keyin, 1873-yil 12-avgustda imzolangan ushbu sulh shartnomasining matni aynan Komil Xorazmiyning husnixati bilan yozilgan [6; B.143.]. Mazkur shartnomaga ko'ra, Xiva xonligi Rossiya imperiyasiga qaram bo'lib qolgan.

Keyinchalik Komil Xorazmiy devonbegi (1873–1880-yillar), so'ngra qaytadan mirzaboshi (1880-yildan) lavozimlarida faoliyat yuritib, davlatning ichki va tashqi siyosatida faol ishtirok etgan. U Xiva xonligi vakili sifatida 1873-yilda va 1883-yilda ikki marotaba Moskva va Sankt-Peterburg shaharlariga rasmiy diplomatik safarlar qilgan. Shu davrda u, Feruzning topshirig'iga binoan, 1880–1881-yillarda Xorazmda birinchi bo'lib toshbosma bosmaxonani tashkil etgan, bu esa Xiva madaniy hayotida kitobat va matbaachilikni rivojlantirishga turtki bo'lgan [1; B.5.].

Adabiy meros va ma'rifatparvarlik faoliyati. Komil Xorazmiy lirik shoir va tarjimon sifatida o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida salmoqli meros qoldirgan. U tuzgan devon sakkiz mingdan ortiq misrani o'z ichiga olgan bo'lib, g'azal, murabba, muxammas, musaddas, masnaviy, ruboiy, qasida va muammo kabi an'anaviy aruz janrlarini qamrab oladi [4; B.9.]. Shoirning birinchi devoni 1881-yilda Xivada toshbosma usulida nashr etilgan, ikkinchi marta 1895-yilda Xivada, uchinchi marta esa 1909-yilda Toshkentda to'laroq chop etilgan.

Komil Xorazmiy she'riyatining o'ziga xos jihati shundaki, unda an'anaviy ishq-muhabbat mavzulari bilan birga, o'tkir ijtimoiy tanqid ham yetakchi o'rin egallaydi. «Falak zulmi bir yonu, bir yon alar...» kabi misralari aforizm darajasiga ko'tarilib, o'z davridagi

adolatsizlik va jaholat illatlarini fosh etgan [4; B.78.]. Bu shoirning ma'rifatparvar pozitsiyasi va ijtimoiy adolat tuyg'usining yorqin ifodasidir.

Komil Xorazmiyning ma'rifatparvarlik faoliyati uning tarjima ishlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. 1865-yilda u Barxurdor bin Mahmud Turkman Farohiyning «Mahbub ul-qulub» (yoki «Mahfiloro») asarini, 1869–1870-yillarda esa Faxriddin Ali Sayfiyning «Latoyif at-tavoyif» asarini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Ushbu tarjimalar turkiy tilning badiiy imkoniyatlari va boy so'z xazinasini yaqqol namoyish etgan hamda Feruz davrida Xorazmda shakllangan tarjimachilik maktabining muhim namunalari hisoblanadi [2; B.116.]. Shuningdek, u Shayx Sulaymon Buxoriyning mashhur lug'atida Xorazm shevasiga oid so'zlarni izohlashda asosiy ma'lumot beruvchi sifatida xizmat qilgan.

«Toshkent ta'rifi» qasidasi va yangi madaniyatga munosabat. Komil Xorazmiyning 1891 va 1896–1897-yillarda Toshkent shahriga uyushtirilgan safarlari uning dunyoqarashida muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Ushbu safarlardan olingan jonli taassurotlar asosida yozilgan «Dar bayoni ta'rif va tavsif Toshkand» qasidasi o'zbek mumtoz adabiyotida ijtimoiy realizmning ilk uchqunlaridan biri sifatida baholanadi. Asarda muallif Toshkentda kuzatgan zamonaviy madaniy o'zgarishlarni ulug'lab, Xiva xonligida ham mavjud turg'unlikdan chiqish va shu yo'sindagi yangiliklarni amalga oshirish zarurligini ta'kidlagan. Bu Komil Xorazmiyning oddiy ijodkordan ko'ra ma'rifatparvar mutafakkir darajasiga ko'tarilganligini ko'rsatuvchi muhim dalildir.

«Tanbur chizig'i» – musiqiy ixtiro va sulolaviy davomiylik. Komil Xorazmiyning Xiva xonligi madaniyati rivojiga qo'shgan eng buyuk hissalaridan biri – bu «Tanbur chizig'i» deb nomlangan original nota yozuv tizimini ixtiro qilganidir. Uzoq asrlar davomida «sina-ba-sina», ya'ni og'zaki yo'l bilan ustozdan shogirdga o'tib kelgan an'anaviy maqom san'atining unutilib, yo'q bo'lib ketishi xavfi tug'ilgan tarixiy sharoitda, u tanbur cholg'usining pardalariga asoslangan o'ziga xos nota yozuvini joriy etgan [1; B.42.]. Mazkur tizim Sharq musiqashunosligi tarixida birinchi mahalliy nota yozuvi sifatida tan olinadi.

«Tanbur chizig'i» tizimi orqali birinchi bo'lib «Rost» maqomining bosh qismi yozib olingan. Komil Xorazmiy nafaqat nazariyotchi, balki yetuk bastakor sifatida ham «Murabbai Komil», «Peshravi Feruz» kabi mashhur kuylarni yaratgan. Mazkur kuylar bugungi kungacha yozma shaklda saqlanib, xonanda va sozandalar ijrosida yangrab kelmoqda [1; B.48.].

Otasi boshlagan ulug' ishni uning o'g'li, mohir musiqashunos Mirzo Muhammad Rasul (1840–1922) muvaffaqiyatli davom ettirgan. U Xorazm «Shashmaqom»ining qolgan barcha ashula va cholg'u yo'llarini, ya'ni olti yarim maqomni to'liq notalar bilan ta'minlab, yozib chiqqan. Keyinchalik bu salohiyatli ish kompozitor Matniyoz Yusupov tomonidan davom ettirilib, besh tomlik «Xorazm maqomlari» nashri yuzaga keldi. Aynan shu uch avlodli musiqashunoslik an'anasi tufayli Xorazm maqom maktabi bugungi kungacha hech qanday tarixiy yo'qotishlarsiz, asl holida bizgacha yetib kelgan.

Komil Xorazmiy fenomenining tarixiy ahamiyati. Yuqorida bayon etilgan dalillar va manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Komil Xorazmiy hodisasini XIX asr Xiva xonligi madaniy muhitining ramziy mujassamasi sifatida baholash mumkin. Uning shaxsiyatida bir vaqtning o'zida qattiqqo'l davlat arbobi va nozikta'b shoir, sodiq diplomat va mustaqil mutafakkir, an'anaviy xattot va innovatsion musiqashunos jihatlari uyg'unlashgan. Bu uyg'unlik o'sha davr Xiva ziyolisining ideal qiyofasini namoyon etadi.

Komil Xorazmiy faoliyatining tarixiy ahamiyati bir necha jihatdan namoyon bo'ladi. Birinchidan, u o'z davridagi adabiy-madaniy muhitning intellektual markaziy figurasi sifatida atrofiga Ogahiy, Munshiy, Rojij, Bayoniy, Tabibiy, Chokar kabi yetuk shoir va olimlarni jamlagan. Ikkinchidan, uning xattotlik mahorati va kotibliги xonlikning rasmiy hujjatchilik madaniyatiga yuksak namuna bo'lgan. Uchinchidan, u tashkil etgan toshbosma orqali Xivada matbaachilik ishi yo'lga qo'yilgan, bu esa keng kitobxonlar ommasining shakllanishiga zamin yaratgan. To'rtinchidan, eng muhimi, «Tanbur chizig'i» orqali u milliy musiqiy merosning saqlanib qolishi va keyingi avlodlarga yetib borishida hal qiluvchi rol o'ynagan.

Shu nuqtai nazardan, Komil Xorazmiy nafaqat XIX asr Xiva madaniyatining yorqin namoyandasi, balki butun o'zbek madaniyati tarixida ham unutilmas o'rin egallagan shaxs hisoblanadi. Uning faoliyati an'ana va yangilik, milliylik va umumbashariylik, badiiy ijod va ilmiy izlanishning organik uyg'unligi qanday qilib milliy madaniyatni yuksaltirishi mumkinligini namoyish etuvchi yorqin tarixiy misoldir.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Xiva xonligi madaniy muhitida, Rossiya imperiyasi protektoratiga aylanish kabi siyosiy bosimga qaramay, o'ziga xos uyg'onish jarayoni yuz bergan. Bu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz saroyida shakllangan adabiy-madaniy muhitni ko'rsatish mumkin.

Ikkinchidan, Komil Xorazmiy ushbu madaniy muhitda nafaqat oddiy ishtirokchi, balki yetakchi shaxs sifatida namoyon bo'lgan. U o'z faoliyatida davlat boshqaruvi, diplomatiya, adabiyot, ma'rifatparvarlik va musiqashunoslik kabi turli sohalarni yagona ijodiy yaxlitlikda uyg'unlashtira olgan kamyob iste'dod sohibi edi.

Uchinchidan, uning ixtirosi bo'lgan «Tanbur chizig'i» nota tizimi nafaqat Xorazm maqom san'atini muqarrar yo'qolishdan asrab qolgan, balki keyinchalik o'g'li Mirzo Muhammad Rasul va kompozitor Matniyoz Yusupov tomonidan davom ettirilib, Xorazm shashmaqom maktabining bugungi kungacha asl holda saqlanib qolishini ta'minlagan. Bu, o'z navbatida, ma'naviy merosning ilmiy asosda kodlashtirilishi an'analarni saqlash uchun naqadar muhim ekanligini isbotlaydi.

To'rtinchidan, Komil Xorazmiy fenomeni o'zbek madaniyati tarixidagi ko'p qirrali shaxs misolida an'ana va yangilik, mahalliylik va kengayotgan dunyoqarash o'rtasidagi muvozanatni ushlab tura olishning yorqin namunasini taqdim etadi. Uning merosini har tomonlama o'rganish va keyingi avlodlarga yetkazish – milliy o'zlikni anglashning ajralmas qismi bo'lib qolaveradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Akbarov I. Musiqa lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1997. – 280 b.
2. Bayoniy Muhammad Yusufbek. Shajarai Xorazmshohiy. – Toshkent: Sharq, 1994. – 240 b.
3. Husanova D. XIX asr 2-yarmi Xiva adabiy muhiti. Muhammad Rahimxon Feruz va Komil Xorazmiy // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – Toshkent, 2024. – №3. – B. 133–139.

4. Komil Xorazmiy. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchilar: A. Hayitmetov, V. Mo'minova. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. – 224 b.
5. Muhammadrizo Ogahiy. Asarlar. 6-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – 384 b.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 704 b.
7. Soliyeva X. Xiva xonligi tarixi va XIX–XX asrlardagi madaniy muhit // Modern Science and Research. – Toshkent, 2025. – №1. – B. 67–70.
8. Yusupov M. Xorazm maqomlari. 1–5 jildlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1958–1980.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
X RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, may

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 10-son (may, 2026-yil). – 93 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-may

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.